



PIRLS XALQARO TADQIQOTI TARIXI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Mahliyo Xoliqova

JDPU “ Boshlang’ich ta’lim ” fakulteti 3-bosqich talabasi
+998937770518

mahliyoxoliqova02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7739391>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 08- mart 2023 yil

Ma’qullandi: 12-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 16-mart 2023 yil

KEY WORDS

PIRLS, ePIRLS, IEA, xalqaro baholash dasturi, o’qish savodxonligi.

ABSTRACT

Ushbu maqolada PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) tarixi, uning o’tkazilish davri, maqsad va vazifalari haqida ma’lumot keltirilgan.

Bugungi kunda dunyo miqyosida har jabhada o’zining munosib o’rnini topib borayotgan O’zbekistonda ta’lim-tarbiya sohasini yana-da takomillashtirish, jahon standartlari talablariga javob beradigan o’quvchilarga ta’lim berish hozirgi kundagi eng ustuvor maqsadlardan biri bo’lib belgilangan. Yoshlarning ta’lim olishi uchun yetarlicha shart-sharoit yaratilayotgani ham fikrimizni isbotlaydi. Har tomonlama kuchli bilimga ega bo’lgan kadrlarni tarbiyalash esa, albatta, boshlang’ich sinfdan boshlanadi. Dunyo miqyosida IEA (Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi) tomonidan tashkil etilgan PIRLS (boshlang’ich sinf o’quvchilarining matni o’qib tushunish darajasini baholash bo’yicha xalqaro dasturi) tadqiqotlarida qatnashish uchun tayyorgarlik olib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan ham xalqaro tadqiqotlarda o’quvchilarimizning yuqori o’rinlarni egallashlari uchun alohida e’tibor qaratilgan. PIRLS xalqaro tadqiqoti nima?

PIRLS – boshlang’ich sinf o’quvchilarining matni o’qib tushunish darajasini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqot dasturidir. Boshqacha qilib aytganda, boshlang’ich sinf o’quvchilarining o’qib tushunish ko’nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o’qish va o’qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. PIRLS dasturi ilk marta 2001-yilda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA –International Association for the Evulation of Educational Achievement) tomonidan tashkil etilgan. Xalqaro tadqiqotni tashkil etish uchun barcha mas’uliyat Chestnut Hill (Massachusetts, AQSh) Boston kollejiga yuklatilgan.

PIRLS dasturi doirasida olib boriladigan tadqiqotlar har besh yilda o’tkaziladi, ya’ni ilk PIRLS tadqiqoti 2001-yilda o’tkazilgan bo’lib, undan so’ng 2006, 2011, 2016-yillarda o’tkazilgan. So’nggi tadqiqot esa 2021-yilning aprel oyida o’tkazildi. O’tkazilayotganiga 20 yildan oshgan bu xalqaro tadqiqot o’quvchilarning 20 yil oldingi va hozirgi bilimlarini solishtirish imkonini

beradi.

Xalqaro tadqiqotlardan biri bo'lgan PIRLS dasturi boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish va matnni o'qib tushinish savodxonligini baholash vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. PIRLS tadqiqoti dunyo miqyosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini sinovdan o'tkazadi. Bunda butun mamlakatdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari emas, balki tadqiqot uchun tayyorgarlik ko'rgan o'quvchilar sinovdan o'tkaziladi. PIRLS tadqiqotida ishtirok etuvchi mamlakatlar soni ortib bormoqda. PIRLS 2021 xalqaro tadqiqotida taxminan 70 ga yaqin mamlakatlar, benchmark ishtirokchi sifatida qatnashishi hamda 2001-yildan buyon avvalgi sikllarda ishtirok etgan ko'pgina boshqa mamlakatlar qatnashishi ko'zda tutilgan edi. PIRLS xalqaro dasturi o'zining ma'lumotlarini zamon bilan hamnafas olib boradi hamda o'zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi.

PIRLS tadqiqotlari quyidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan:

- Ta'lim sohasidagi dunyo ustuvorliklarini aks ettiruvchi ob'ektiv o'lchovlar va vositalarni ishlab chiqish;
- Mamlakat o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligini qiyosiy baholash;
- Tadqiqot natijalariga ta'sir ko'rsatgan kontekstual omillarni aniqlash;
- Xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan dalillarga asoslangan ma'lumotlarga ega bo'lish.

Tadqiqot obyekti boshlang'ich maktab bitiruvchilarining o'quv yutuqlari hisoblanadi, chunki bu to'rtinchi o'quv yilida o'qitish bo'yicha barcha bilim va ko'nikmalarni to'playdi. Shu yoshda, o'quvchilar o'qishni yaxshi o'zlashtirishi kerak, shunda ular asosiy maktabda o'qishni muvaffaqiyatli davom ettirish uchun tarkibiy va formatdagi turli xil matnlardan foydalanadilar.

PIRLS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi – boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish malakasini takomillashtirishdan iboratdir. PIRLS tadqiqotlarida, asosan 4-sinf o'quvchilari ishtirok etadi. Bu tadqiqotlarga 4-sinf o'quvchilarining tanlanishi shu bilan e'tiborliki, aynan o'qishning to'rtinchi yilida o'quvchilar o'qishning yuqori darajasiga ega bo'lishi, ularning keyingi ta'limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Tadqiqotlarda qo'llaniladigan matnlarni turli joydagi maktab o'qituvchilari o'quvchilarning bilimi va qiziqishlarini inobatga olgan holda tavsiya qilishadi. Matnlar odatda, ulardan anglashilgan mazmunni turli usulda shakllantirish yordamida, ularda aks etgan fikr-mulohazalarni qay tartibda tashkillashtirilgani va taqdim etilganiga qarab farqlanadi. PIRLS tadqiqotlarida tavsiya etilgan matnlarni o'qish va matn yuzasidan berilgan savollarga javob berish natijasida o'quvchi matndan anglashilgan ma'noni tez ilg'ab oladigan, matn ustida mulohaza yuritadigan, samarali o'qish strategiyasidan xabardor va o'qish ustida tafakkur qiladigan shaxs sifatida gavdalanadi. PIRLS tadqiqoti uchun tavsiya etilgan matnlar o'quvchilarni ongli fikrlashga, o'z fikrlarini kengaytirgan holda mushohada yuritishga xizmat qiladi. Tadqiqot uchun tanlangan matn o'quvchilar uchun unchalik tanish bo'lmasligi lozim. Har bir tanlangan matn o'quvchilarning yosh doirasi hamda fikrlash qamrovini hisobga olgan holda tanlanadi.

XXI asr – innovatsion texnologiyalar rivojlangan bir paytda ulardan oqilona foydalanish har tomonlama o'z qulayliklarini ulashmoqda. PIRLS tadqiqoti ham kelgusida raqamli PIRLS xalqaro tadqiqotiga o'tishni rejalashtirgan. Raqamli PIRLS 2021 xalqaro tadqiqoti PIRLS

tadqiqotining boshqarilish jarayonini soddalashtirilishiga imkon beruvchi onlayn baholash tizimi orqali boshqariladi va o'quvchilarga topshiriqlar onlayn tarzda taqdim etiladi (nashr qilingan topshiriqlar va baholash daftarlari ko'rinishida berilmaydi). Bu esa ePIRLS tadqiqotining raqamli PIRLS tadqiqoti bilan integrallashuviga imkon berib, ePIRLS tadqiqoti qo'shimcha tekshirishlarning oldini oladi. Bu, albatta, vaqtni tejashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, hozirgi paytda maktablarda tahsil olayotgan o'quvchilar kelgusida mamlakatimizning ertasi bugunidan-da porloq bo'lishini kafolatlovchi yoshlardir. Ularning o'z qiziqishlarini inobatga olgan holda to'g'ri yo'lga yo'naltirish esa pedagoglarning vazifasidir. Har tomonlama bilimga ega bo'lgan, salohiyatli, innovatsion g'oyalarga boy bo'lgan pedagog esa har qayerda o'z qadr-qimmatiga ega. Xalqaro taqdiqotlar talablariga javob beradigan o'quvchilarni tarbiyalash, ularga zamon talablariga mos kelguvchi bilimlarni ulashish kelgusida o'tkaziladigan tadqiqotlarda mamlakatimizning yuqori o'rinlardan joy olishiga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). <<Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. Toshkent – 2019.
2. PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi" Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Nurxon ko'chasi, 21-uy.
3. PIRLS tadqiqotlari uchun topshiriqlar to'plami (o'quv-uslubiy qo'llanma). Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi.